

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAK TABI O'QUVCHILARINI MA' NAVIY-AXLOQIY
TARBIYALASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA KUTUBXONALAR,
TEATR VA OAV AHAMIYATI**

Abdixodirova G. E.

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Pedagogika fakulteti o`qituvchisi

Aliyorov D. N.

Tojiyev S.F.

Musurmonov A. N.

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Pedagogika fakulteti talabalar

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o`rta ta`lim maktabi o`quvchilarini ma`naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirishda kutubxonalar, teatr va OAV ahamiyati haqida ilmiy qarashlari bayon etiladi. Ilmiy fikrlar faktlarga asoslanib xulosalanadi.

Kalit so`zlar: qadriyat, kutubxona, OAV, teatr, madaniyat, oila, tarbiya, baxt-saodat, xulq, fazilat, tafakkur, axloq.

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi, unda yashovchi aholining ma`naviy-axloqiy saviyasi nechog`lik yuksakligiga bog`liq. O`quvchi-yoshlarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi davlatimizning ta`lim sohasini isloh qilish bo`yicha asosiy hujjatlarida ‘Yosh avlodni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi’, - deb belgilab qo`yilgan. Bugungi ba`zi bir yoshlar ma`naviyatining qisman buzilayotganligi, ayrimlarining bizga mutlaqo yot bo`lgan urf-odat, madaniyatga berilib ketayotganligi, voyaga etmagan yoshlar o`rtasida turli bezorilik, jinoyat sodir etish hollari uchrab turishi barchamizni tashvishga solmoqda. Bunday yoshlar kelajakda Vatan ravnaqi uchun o`zlarining qanday hissalarini qo`sha oladilar, qanday kadr bo`lib etishadilar. Vaholanki, mustaqil O`zbekistonning jahondagi rivojlangan mamlakatlar darajasida ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy-axloqiy rivojlanishi ko`p jihatdan yosh avlodni kamol toptirishga, uni yangi ijtimoiy munosabatlarga erkin kirisha oladigan, umuminsoniy qadriyatlarni e`tirof etadigan, ma`naviy-axloqiy qadriyatlarga yo`nalgan ijtimoiy faol, yuqori madaniyatli, malakali kadrlar bo`lib etishishiga bog`liq. O`zga millatlarning ma`naviy qadriyatlari qanchalik ta`sir ko`rsatmasin, kattalarga, ota-onaga hurmat,kamtarlik, halollik, iymon mehnatsevarlik, mehmondo`stlik singari milliy ma`naviy xislatlarimiz barqarordir.Chunki bu ma`naviy xislatlar qon-qonimizga singib ketgan.

Xalqimizning axloq, andisha, sharmu-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmati to‘g‘risidagi ma‘naviy qadriyatlariga zid bo‘lgan evropacha an‘analar yoshlar ma‘naviyatiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O‘zbekistonning istiqboli, ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachi o‘qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta‘lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga etkazishga nisbatan shijoatiga bog‘liq. Har qanday ta‘lim muassasasida tarbiyaviy jarayon bevosita o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta‘lim- tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarining dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish va kasbga yo‘naltirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio, televide niye, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang – barang axborot va ma`lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini, faqat o‘rab –chirmab, uni o‘qima, buni ko`rma deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning maqsad – muddaolarimizga ham to`g`ri kelmaydi. Sababi biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga qat`iy maqsad qilib qo`yanmiz va bu yo`ldan hech qachon qaytmaymiz.

O‘quvchi-yoshlarni ma`naviy shakllantirishda odamlar hayotiga keng kirib kelgan ommaviy axborot vosita (gazeta, jurnal, televide niye, radio, kino va b.q)lari. Ular tomoshabinlar, tinglovchilar, o‘quvchilar emotsional his-tuyg`ulariga bevosita boy maftunkor ta`sir ko`rsatadi. Shu bois ommaviy axborot vositalari ma`naviy tarbiya sohasidagi siyosatni aniq belgilab olishi, ma“naviyatning maqsad va tamoyillarini yoshlarda yuksak ma`naviyatni shakllantirishda tarbiyachi, murabbiy talabalar diqqatini maqsadli yo‘naltirish metodikasini egallab olishi va ommaviy axborot vositalarini barcha ta`limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishi zarur.

Kutubxonalar – insonlarga ziyo tarqatuvchi, ma`naviyatga eltuvchi maskandir. Radioda eshittiriladigan ‘Suhbidam salomi’, ‘Tabassum’, ‘Musiqali daqiqalar’, ‘Oqshom to`lqinlarida’ eshittirishlar kishilar qalbida ma`naviy jo`shqinlik uyg`otadi. ‘Tabassumda’ beg’araz kulgi orqali kishilar xarakteridagi ayrim xislatlar tilga olinib, ularning ijobiy va salbiy jihatlari anglatiladi. Aniq misollarda yoritish, talabalarga shunday tahlil qilish uchun topshiriqlar berish (eshittirishni magnit lentasiga yozib olingandan keyin) ‘Oqshom to`lqinlari’da eshittirishlari esa har qanday ma`naviy etuklikka ega bo`lgan kishini befarq qoldirmaydi, ashula va musiqa orqali ma`naviy ozuqa oladi. Turli pand-nasihat tarzidagi rivoyat va maqollar orqali esa talabalarda qadriyatlarimizni boyitishga bo`lgan harakat, intilishni hosil qiladi.

Yosh avlodni ma`naviy boy bo`lishida ‘Oqshom ertaklari’, ‘Alanga’, ‘Kamalak’ singari eshittirishlar muhim sanaladi. Bunday dasturlar bolalar va o`smirlarni

yaxshilikka, iymon-e`tiqodli bo`lishga, ota-onasi va birodarlariga muhabbatlilikka undaydi. Oynai jahonda ko`rsatiladigan ‘Vatan timsollari’ ‘Assalom, O`zbekiston’, ‘Barhayot navolar’, ‘Bu oqshom’ ko`rsatuvlari va turli mavzularga bag,,ishlangan kinofilmlar bizga, shuningdek qalbida insoniylik tuyg`usi mujassamlashgan har bir talabaga qandaydir ruhiy kayfiyat va olam-olam zavq bag`ishlaydi. O`quvchi-yoshlarni fikr-mulohaza yuritishga, ma`naviy qadriyatlarimizni avaylab-asrashga, ularni kelgusi avlod uchun saboq qilib ko`rsatishga, ta`lim-tarbiyada keng o`rin tutishini anglab olishga va o`rganishga undaydi

Bu ko`rsatuvlar orqali ota-onaga, Vatanga muhabbat, insonni ulug`lash, milliy g`urur, odamiylik qadr-qimmati va mehnatsevarlik kabi fazilatlarning oliyjanobligini tushunib etamiz. Masalan, ‘Ertaklar yaxshilikka etaklar’, ‘Dono bobo o`gitlari’, ‘Otalar so`zi – aqlning ko`zi’, ‘Juma oqshomi’, ‘Mening mahallam’ singari bolalar va kattalar uchun beriladigan ko`rsatuvlar yosh avlodni ma`naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi asosiy omillardan hisoblanadi. ‘Ma`rifat’, ‘Kamalak’, ‘Kamolot’ va h.k. gazetalarida bosilgan materiallarni muhokama qilish, ularda ma“naviyat va ma`rifatga bag`ishlangan materiallarni to`plash, tizimlashtirish, O`zbekistonning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarini o`rganish orqali ularda mamlakatimiz kelajagi buyuk ekanligiga iymon keltirish. O`quvchilarda gazeta va jurnallarga qiziqishni uyg`otish va ularni to`g`ri o`qish, izlab topilgan zarur axborotni qayta ishlash ko`nikmasini shakllantirish maqsadida turli shakl va metodlardan foydalanishni yo`lga qo`yish zarur.

Teatr san`ati badiiy obrazlar tizimi vositasida ko`rsatadi. Teatrda aktyor tomoshabin ko`zi oldida hayotni so`z va dramatik harakat orqali aks ettiradi, tomoshabinlar asar qahramonlari bilan yuzma-yuz turib, bevosita munosabatda bo`ladilar. Teatrning asosiy burchi tomoshabinni g`oyaviy va axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalash uning vazifasi axloqiy-estetik sharoitni yaxshilashga xizmat qilishdir. Teatr yoshlarni vatanparvarlik, baynalmilal, axloqiy go`zallik ruhida tarbiyalaydi. Reklama – qisqa, tez-tez, ma`lum vaqtida eslatib turiladigan axborot. Turl axborot tarqatish vositalari orqali (gazeta, jurnal, katalog, televidenie, radio eshittirishlar) ko`rgazmali tasviriy vositalar (taxta-lavha, afisha, plakatlar), audio- video yozuvlarni namoyish qilish. Videokliplar – o`quv-tarbiyaviy ishlar samadorligini oshirishga xizmat qiladigan videodastur, teledastur, difilm shaklidagi o`quv-tarbiyaviy kliplar talabalar diqqatini o`ziga jalb qiladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Abdulla Avloniying “Turkiy guliston yoxud axloq” asari.
2. A. Boboxonov, M. Maxsumov, “A. Avloniy pedagogik faoliyati” 1999 yil. 31-36- bet.
3. G E.Abdixodirova, G Magzimova, O Kuybakova Shaxsni ma`naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash Академические исследования в современной науке 2 (5),

4. G E.Abdixodirova, G Magzimova, O Kuybakova Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda' qo'g'irchoq teatri' ning roli va ahamiyati. Science and innovation in the education system 2 (2), 86-89
5. G E.Abdixodirova O'tmish mutafakkirlarining musiqa san'ati yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini va musiqiy idrokni shakllantirishdagi tutgan o'rni Scientific Impulse 1 (3), 788-794
6. G E.Abdixodirova Ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar History and page 1 (1), 250-254
7. G E.Abdixodirova O'quvchilar-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va inson komilligi mezonzlari Topical Issues of Science 1 (4), 87-90
8. G E.Abdixodirova SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA INSON KAMOLOTI VA TARBIYA MASALALARI GE BELARUS 1 (1), 122-128.
9. Ernazarova, G. O., Qaynarova, I. V. (2021). Zamonaviy dasturlashtirilgan o'qitishni qo'llash. Zamonaviy ta'lif va tarbiya, 1(1), 75-81.
10. Qorayev, S. B., & Janbayeva, M. S. (2021). Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy tamoyillari. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1492-1496.
11. Janbayeva, M. S., & Qorayev, S. B. (2021). Modern principles of organization of extracurricular activities in primary schools. *Экономика и социум*, (5-2), 837-843.
12. Smatillaryevna, J. M., Hilola, R., & Mannona, M. (2023). Organization and management of the education process at the school based on the cluster approach. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 20(8), 66-68.
13. Qorayev, S. B., & Janbayeva, M. S. (2022). Boshlang'ich ta'lilda o'qish darslarida interfaol metodlarni samarali qo'llashning o'ziga hos jixatlari. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 1079-1085.
14. Janbayeva, M. S., & Qorayev, S. B. (2021). Boshlangich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy tamoyillari. *Экономика и социум*, (5-2 (84)), 837-843.
15. Oblaqulovna, E. G., Zarifamukaddamovna, K., & Valievna, Q. I. (2021). The importance of developing innovative methods in the educational system. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(05), 833-838.
16. Ernazarova, G. O., Mukaddamovna, K. Z., Valievna, Q. I., & Bolatbekovich, K. A. (2022). The Need to Study Pedagogical Professional Thinking. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 5, 95-98.
17. Smatillaryevna, J. M., & Serkebayevna, T. L. (2023). Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida o 'yin texnologialaridan foydalanishning ahamiyati. *Journal of science, research and teaching*, 2(12), 105-108.

18. Smatillayevna, J. M. (2023). Sport menejerining boshqaruvchanlik qobiliyatini rivojlantirish. *Journal of science, research and teaching*, 2(12), 102-104.
19. Smatillayevna, J. M. (2023). Ta’lim jarayonida ijodkor va novator o ‘qituvchilarning o ‘rni. *o’zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(24), 156-159.